

QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2023- yil 1- fevral holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida, 2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha
2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

4




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, 2023- yil yanvar oyida)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar oyida, birlikda)




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(1- fevral holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **9,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **10,4 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



194

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

3 254

Ishlab chiqarish sanoati

34

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

71

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2023-yil 1-fevral holatiga ko'ra, sanoat korxonalarini va tashkilotlarini soni 3 553 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,4 % ga oshdi.


Jami sanoat korxonalarini va tashkilotlarini ko'payishining asosiy omili (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida 10,4 % ga (jami sanoatdagi ulushi 91,6 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 24,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 2,0 %) o'sishi kuzatildi. Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 91,9 % ni (jami sanoatdagi ulushi 0,9 %) tashkil etgan va tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 10,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 5,5 %) tashkil etdi.

Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,9** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




Mikrofirkmalar



Kichik korxonalar



Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida



- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
- fuqarolik obyektlarini qurish
- bino va inshootlar qurish

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, qurilish sohasida korxonalar va tashkilotlar soni 2 455 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga oshdi.


Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili bu - bino va inshootlar qurishda - o'tgan yilga nisbatan 102,0 % ni (jami qurilishdagi ulushi 59,8 %), fuqarolik obyektlarini qurish - 31,9 % ni (jami qurilishdagi ulushi 13,8 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining 90,8 % ni (jami qurilishdagi ulushi 26,4 %) tashkil etdi.

Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,5 foizga oshdi**






Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

Mikrofirmalar

Kichik korxonalar



14,5 foizga oshdi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, yillar kesimida

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, savdo sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 7 302 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,5 % ga oshdi.

Jami savdo korxonalar va tashkilotlari soni ko'payishining asosiy omili - avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdoda o'tgan yilga nisbatan 9,1 % ga (jami savdodagi ulushi 67,0 %), avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdoda o'tgan yilga nisbatan 26,7 % ga (jami savdodagi ulushi 23,8 %), avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlashning o'tgan yilga nisbatan 28,1 % ga (jami savdodagi ulushi 9,2 %) o'sishidir.



- Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo
- Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

• Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

446



• Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18




• Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish


10




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni




Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



Mikrofirmalar



Kichik korxonalar



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



106
yashash bo'yicha xizmatlar



1 347
Oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar

2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni 1 453 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,4 % ga oshdi.


Jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili - oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar 6,5 % ga (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 92,7 %) o'sgan va yashash bo'yicha xizmatlarning 103,9 % ni (jami yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasidagi ulushi 7,3 %) tashkil qiladi.


24 240
ro'yxatdan o'tgan

22 297
faoliyat ko'rsatayotgan

278
2023 - yil yanvar oyida
yangi tashkil etilgan

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni
(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)





Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2023- yilning 1-fevral holatiga ko'ra 2 337 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 272 ga yoki 13,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 136 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 196 ga yoki 10,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 18 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,9 % ni tashkil etgan.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2023- yilning 1- fevral holatiga ko'ra 18 054 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 530 ga yoki 16,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 16 642 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 872 taga yoki 12,7 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 257 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 17,9 % ni tashkil etgan.



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)

14



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra 202 tani tashkil etib, ulardan 195 tasi yoki 3,6 % faoliyat ko'rsatmoqda.

2023- yilning yanvar oyida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Tumanlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)


16

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
Qoraqalpog'iston Respublikasi	195	107	88
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	7	3	4
Beruniy	10	4	6
Bo'zatov	7	7	0
Qorao'zak	11	7	4
Kegeyli	8	5	3
Qo'ng'irotda	12	9	3
Qonliko'l	7	3	4
Mo'ynoq	39	24	15
Nukus	9	4	5
Taxiatosh	8	1	7
Taxtakopir	4	2	2
To'rtko'l	8	6	2
Xo'jayli	4	2	2
Chimboy	4	3	1
Shumanay	3	1	2
Ellikqal'a	6	3	3
Nukus sh.	48	23	25

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Nukus shahrida 48 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 24,6 %), Mo'ynoq 39 ta (20,0 %), Qo'ng'irotda 12 ta (6,2%), Qorao'zak 11 ta (5,6%), Beruniy 10 ta (5,1%), Nukus tumani 9 ta (4,6 %), To'rtko'l, Taxiatosh va Kegeyli 8 ta (4,1 %), Amudaryo, Qonliko'l va Bo'zatov tumanlarida 7 ta (3,6 %), va Ellikqal'a tumanida 6 ta (3,1 %) ni tashkil etadi.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)




2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 28 147 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahri (27,7 %), To'rtko'l (9,9 %), Beruniy (8,5 %), Amudaryo (7,6 %), Ellikqal'a (6,3 %), Qo'ng'iro't (6,1 %), Xo'jayli (5,3 %), Nukus (4,1 %), Chimboy (4,2 %), Kegeyli (3,2 %), Taxiatosh (3,1 %), Qorao'zak (2,8 %), Mo'ynoq (2,6 %), Qonliko'l (2,7 %), Shumanay tumanlarida (2,4 %), Taxtakopir (1,9 %) va Bo'zatov (1,6%) tumanlari hissalariqiga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2023- yil yanvar oyida, birlikda)

2023- yilning yanvar oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 293 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi Qo'ng'iro't (20,8 %), Nukus shahrida (19,8 %), To'rtko'l (14,0 %), Beruniyda (6,5 %), Ellikqal'a (5,5 %), Amudaryo (7,8 %), Xo'jayli (2,0 %), Kegeylida (5,5 %), Chimboy (3,8 %), Taxiatosh (2,4 %), Nukus (2,4 %), Qorao'zak (1,0 %), Taxtakopir (1,7 %), Mo'ynoqda (1,7 %), Qonliko'l (0,7 %), Shumanayda (2,4 %), Bo'zatov (2,0 %) tumanlari ulushiga tegishli.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, birlikda)



2023- yil 1- fevral holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning, jami 16 642 ta soniga nisbatan hududlardagi ulushi, Nukus shahrida (32,3 %), To'rtko'l (9,9 %), Beruniy (7,5 %), Amudaryo (7,3 %), Qo'ng'iro't (5,8 %), Xo'jayli (5,5 %), Nukus (4,6 %), Ellikqal'a (4,6 %), Chimboy (4,3 %), Kegeylida (3,4 %), Mo'ynoq (2,8 %), Qorao'zak (2,9 %), Taxiatosh tumanida (2,5 %), Bo'zatov (1,8 %), Qonliko'l (1,7 %), Shumanay (1,7 %), Taxtako'pir (1,4%) tumanlari hissasiga tegishli.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri - axborot ma'lumotnoma tusidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Statistik registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 61 222-78-37